



YUQORI SINFLARDA MATN MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI

Muqimjonova
Ziynatmahalbegim

Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn ustida ishlash va matndagi barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, sujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liqligi, sujet va ona tili darslarida badiiy matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Matn ustida ishlash, badiiy til, matn tahlili, ta'lim, maktab, Milliy o'quv dasturi.

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о работе над текстом и взаимозависимости всех частей текста (идеальная основа, композиция, предмет, наглядные пособия), совершенствовании методики работы над художественным текстом на уроках предметного и родного языка.

Ключевые слова: Работа над текстом, художественный язык, анализ текста, образование, школа, Национальная учебная программа.

Abstract: This article provides information about working on the text and the interdependence of all parts of the text (ideal basis, composition, subject, visual aids), improving the methodology of working on the artistic text in the subject and native language classes.

Key words: Work on the text, artistic language, text analysis, education, school, National Curriculum.

Fan va texnika taraqqiyoti jadal rivojlanib borayotgan hozirgi zamon ta'lim jarayoni va o'quv materiallari sifatiga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'quv dasturlari tuzilishining ta'lim parametrlarini yangilashga o'ziga hos ahamiyat berilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – ta'lim oluvchi shaxsini har tomonlama mukammallashtirish, ob'ektiv borliqni anglashiga xizmat qiladigan yangi avlod darsliklarini yaratish hisoblanadi.

2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan darsliklar tamomila yangilandi. Yangi avlod darsliklariga e'tiborimizni qaratsak avvalgi o'zbek tili darsliklaridagi mash va badiiy asarlardan olingan gap tahlillari kamayganini sezishimiz mumkin. Yangi avlod darsliklarida esa turli xil fanlar doirasidagi matnlar keltrilgan bo'lib o'quvchi shaxsining faqatgina yozma nutqinigina emas balkim og'zaki

nutqini rivojlantirish bilan birgalikda tafakkurini hamda ilodiy fikrlash doirasini ham kengaytirishga xizmat qiladi.

Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi.¹

Shunday ekan O'zbek (ona) tili o'qituvchisidan matn bilan ishlash borasida tajriba va o'z navbatida zukkolik talab etiladi. Endilikda ulardan faqatgina o'z mutaxassislik sohasidagina emas balkim boshqa fanlar bo'yicha ham bilim ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etilmoqda.

Matn – bu nutqiy shakl bo'lib, vazifasiga ko'ra to'liq nutqiy butunlik hisoblanadi. Har bir matn murakkab tuzilma va mazmun tarkibiga ega bo'lib, u og'zaki yoki yozma ijodiy asar sifatida qaraladi. Tilshunoslikda matn tilning alohida birligi va matn tilshunosligi deb ataladigan sohaning asosiy obyekti sifatida ko'rib chiqiladi. Matn so'z birikmasi va gapdan farq qiladi, chunki matnning o'z kategoriyalari va qonuniyatlari mavjud. Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalari mavjudligi sababli, matn tarkibidagi birikishlarni bog'lovchilar yordamida o'rganish "Matn tilshunosligi" sohasining asosiy masalalaridan biridir.

Shuningdek, yuqori sinf darsliklarida matn mavzusiga alohida e'tibor berilgan. "Matnning maqsadini aniqlash", "Matnни qisqartirish", "Matnga sarlavha qo'yish", "Matnни kengaytirish" kabi mavzular pedagogdan ijodkorlik va matn bilan ishlash tajribasini talab etadi.

Masalan o'qituvchi shunday darslarning birida ya'ni aynan "Matnning maqsadini aniqlash" mavzusini misol qilib olsak, matnning maqsadini aniqlash uchun quyidagi qadamlarni bajarishi mumkin:

1. Mavzuni aniqlash: Matnning asosiy mavzusini tushunish uchun matnda eng ko'p uchraydigan asosiy so'z va iboralarga e'tibor berishi zarur.

2. Muallif maqsadini tushunish: Muallifning asosiy niyati nima ekanligini aniqlash uchun matndagi asosiy g'oyalar va ma'lumotlarni tahlil qilinadi. Muallifning ma'lumot berish yoki badiiy estetik zavq ulashish kabi maqsadlari bo'lishi mumkin.

3. Matnning tuzilishini ko'rib chiqish: Matnning qanday tuzilganligini tahlil qilish ham zarur omillardan biridir. Masalan, kirish, asosiy qism va xulosa qismidagi ma'lumotlar muallifning maqsadini aniqlashda yordam beradi.

5. Matn kontekstini hisobga olish: Matn qaysi sharoitda yozilganligini va uning auditoriyasini hisobga olib, muallifning maqsadini aniqlashga yordam beradi.

Yuqori sinflarda "matn maqsadini aniqlash" mavzusini o'qitish metodikasi uchun quyidagi yondashuv va metodlardan foydalanish ham mumkin:

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-darslarida-matn-ustida-ishlash-metodikasini-takomillashtirish>

1. Tayyorlov bosqichi: mavzu haqida umumiy ma'lumot berish. Bunda pedagog darsning boshida o'quvchilarga matn maqsadini aniqlash nima ekanligini va nima uchun bu ko'nikma muhimligini tushuntiradi.

2. Matn bilan ishlash bosqichi: matnni o'qish. O'quvchilarga matnni mustaqil ravishda yoki guruh bo'lib o'qishlarini topshiriladi. Matnni to'liq tushunish uchun va o'quvchilarni diqqatini ushlab turish uchun o'qish jarayonida savollar berib boriladi.

4. Amaliy mashg'ulotlar: guruh bilan ishlash. Bunda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib va har bir guruhga turli matnlar beriladi. Har bir guruh matnni tahlil qilib, maqsadini aniqlashga harakat qiladi.

Eng asosiy bosqichlardan biri bu - muhokamalar tashkil qilish. Har bir guruh o'z matnining maqsadini qanday aniqlaganini tushuntirib beradi va to'g'ri yoki noto'g'ri hukmlar muhokama qilinadi. Pedagog shular orqali o'quvchini erkin fikrlash, tafakkur qish va o'z g'oyalarini tengdoshlariga qo'rqmasdan bayon eta olishini ta'minlasa maqsadiga erishgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.

2. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

3. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

4. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.

5. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

6. V.M.Utanova. "Ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish"

7. K. Qosimova. "Ona tili o'qitish metodikasi"

8. G'ulomov. "Ona tili o'qitish metodikasi"

9. Yo'ldoshev, O'. Sharipova. "Tilshunoslik asoslari."